



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Özbək dilində ibrani adlari	
20	Rəxşanə BABAZADƏ, Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində məsdər	175
21	Aytəkin ZEYNALOVA, Özbəkistan və naxçıvan mətbəxində folklor elementləri	178
22	Nazmina ABDISAMETOVA, Qorabuloq shevasida qo‘llanadigan idish-tovoq va uy anjomlari nomi	180
23	Mohlaroyim IZZATOVA, Folklor adabiyotining milliy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni	183

2-sho‘ba. O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI

1	Samixon ASHIRBOYEV, 20-yillar matbuoti: Faxri Kamolning singarmonizm talqini 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/IYBD6338	187
2	Abdulhay SOBIROV, O‘zbek areal tilshunosligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NDQE1005	191
3	Shukurjon NORBAYEVA, Xorazm shevalari leksikasida substrat asosli birliklar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/EMTE8289	195
4	Ibrohim DARVISHOV, Namangan qipchoq shevalarida sinonimlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/OKNB2844	200
5	Mo‘minjon TURDIBEKOV, Tojikistonda o‘zbek shevalarining o‘rganilishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/SDAQ1466	205
6	Murodqosim ABDIYEV, Salohiddin RAXMONOV, Chandir shevasining ba’zi grammatik xususiyatlari xususida (Pastdarg‘om tumani Chandir qishlog‘i misolida) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/DHJ12368	209
7	Jo‘ra XUDOYBERDIYEV, Y.D.Polivanov va o‘zbek shevashunosligining ayrim masalalari	212
8	Alisher UBAYDULLAYEV, Qipchoq lahjasiga mansub ayrim qarindoshlik terminlarining lingvistik tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMZR8354	219
9	Navro‘z RAXMONOV, Qipchoq shevalarini o‘rganishning yangi bosqichi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMGU2063	223
10	Zoxira XIDRALIYEVA, Iqon shevasiniung o‘zbek adabiy tili va ayrim o‘zbek shevalariga munosabati	225
11	Baurjan SAYFULLAYEV, O‘zbek va qozoq til kontaktlari natijasida shakllangan toshkent qozoq shevasining lingvistik tahlili	228
12	Zilola TILLABAYEVA, Samarqand viloyati qarluq shevalarida o‘zlashma qatlam va bilingvizm masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/GKIU1258	236
13	Vaziraxon ALIMBEKOVA, Adabiy tildagi lakuna va sheva leksikasi munosabati	239
14	Muattarxon TURDIXO‘JAYEVA,	243

	Nurafshon shahar shevasining ayrim dialektal xususiyatlari	
15	Sadoqat RAJABOVA, Ishtixonda yashovchi etnik arablar	246
16	Umarjon QODIROV, Shonazar Shoabdurahmonov – lingvofolkloristika asoschilaridan	249
17	Gulchexra AHATOVA, Toyloq shevasidagi iboralar va ularning ingvomadaniy tahlili	253
18	Hayotxon SOTIMOVA, Xorazm o‘zbek shevalarida oila konseptining urf-odat va marosimlardagi lingvomadaniy ifodasi	260
19	Ramazon ORTIQOV, “Ikkilamchi nominatsiya” tushunchasining ilmiy adabiyotlardagi talqini	264

3-SHO‘BA. DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, DIALEKTAL KORPUS, TOPONIMIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

1	Hamidulla DADABOYEV, XI–XII asr turkiy til tibbiy terminologiyasi tizimining “devonu lug‘otit turk”da aks etishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PTYD5470	271
2	Nishonboy HUSANOV, “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy” – o‘zbek shevalarini o‘rganishda muhim tarixiy manba 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MAKE1648	276
3	Baxtiyor MENGLIYEV, Dilrabo ELOVA Lingvo-mantiqiy ekspertiza: yuridik lingvistikada integrativ yondashuv masalasi	281
5	Muhayyo HAKIMOVA, Milliy tafakkurning abstrkat leksika shakllanishiga ta’siri 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MBYM8287	284
6	Nilufar ABDURAXMONOVA, Nasima ABDULLAYEVA, Dialektal birliklarning raqamli korpus modelini yaratish masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TYZS7723	292
7	Zamira DJURABAYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	297
8	Muyassar XOLOVA, Dialektal korpusda olmosh so‘z turkumining teglanishi	300
9	Anvarbek TURDIALIYEV, Ma’lumotlar bazasini shakllantirish va qidiruv tizimiga joylashtirish masalalari	304
10	Gulxayo ISABAYEVA, Sardor JO‘RAQULOV Tog‘ay Murod nasrida dialektizmning o‘rni (Otamdan qolgan dalalar romani misolida)	313
11	Feruza AMINOVA, Badiiy matnda nurota shevasiga xos morfologik shakllarning qo‘llanishi va uslubiy vazifasi	316
12	Oynisa XOJIYEVA, O‘zbek va turk tillarida paremiologik birliklarning struktur-semantik va funktsional munosabati	320
13	Dildora AMIROVA, “Bobur” antroponimining badiiy matnlarda allyuziv nom sifatida qo‘llanilishi	325
14	Kamola NOSIROVA, Dialectological features and lexical layer of alla texts in tashkent region	328

**NURAFSHON SHAHAR SHEVASINING AYRIM DIALEKTAL
XUSUSIYATLARI**
SOME OF THE URBAN DIALECT OF NURAFSHAN DIALECTAL FEATURES

Muattarxon TURDIXO'JAYEVA,
ToshDO'TAU tayanch doktoranti
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/JHON4709

Annotation. *In the course of research on the Urban dialect of Nurafshan, which is considered the center of the Middle Chirchik district, it was found that the dialect has some differences from the literary language. Emphasis was placed on the phonetic features of the dialect observed in the vowel system and the pronoun category. As a result of studying the phonetic and grammatical features of the qarluq dialect of the nurafshan urban dialect, the science of Uzbek dialectology can be enriched with new theoretical knowledge. These collected materials can also be used as dictionaries or new information for textbooks or manuals on Uzbek dialectology.*

Key words: *The system of vowels in the urban dialect of nurafshan, the pronoun category, phonetic processes.*

Toshkent viloyatining janubiy tumanlari va ularning dialektal xususiyatlari hozirgi kunda dialektologiya fanining dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Hududda tarqalgan qarluq shevalari areali va mazkur shevalarning lingvistik xususiyatlarini o'rganish o'zbek dialektologiyasi, xususan lingvistik geografiya fani uchun ham qimmatli material bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. Qarluq lahjasi Toshkent viloyatining deyarli barcha hududlarida keng tarqalgan. O'rta Chirchiq tumanida shakllangan sheva o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti, etnik tarkibi hamda ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanib, uning ichki xilma-xilligini belgilaydi.

O'rta Chirchiq tumani shevasi o'zbek tilining qarluq lahjalar guruhiga mansub bo'lib, Toshkent-Farg'ona shevalar tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu hududda yashovchi aholi nutqida qadimiy turkiy qatlam bilan bir qatorda fors-tojik va rus tillarining ham ma'lum darajadagi ta'siri kuzatiladi. Bu holat hududning tarixiy-iqtisodiy aloqalari bilan izohlanadi.

Sheva asosan qishloq hududlarida nisbatan to'liqroq saqlangan bo'lib, shahar va urbanizatsiya jarayonlari kuchli bo'lgan joylarda adabiy til me'yorlari ustunlik qila boshlagan

Mazkur maqolamizda aynan O'rta Chirchiq tumani markazi hisoblanga Nurafshon shahar shevasining qarluq lahjasiga xos bo'lgan xususiyatlariga urg'u beriladi. Aksar qarluq shevalarida singarmonizmning buzilish holatlari mavjud. Nurafshon shahar shevasi ham singarmonizm hodisasi deyarli kuzatilmasligi bilan boshqa tip shevalardan farqlanadi. Sheva 6 unlidan iborat: i, e, ä, ā, o, u.

Shunga ko'ra, bunday shevalarda unlilarning moyillashuvi bo'lmaydi. Mazkur shevada ham unlilarning soni 6ta: i, e, ä, ā, o, u ligi bilan boshqa shevalardan ajralib turadi. Unlilar soni 6ta ekanligi bilan adabiy tilga yaqinligini sezish mumkin.

ä – old qator, quyi-keng, lablanmagan unli. Masalan: äjïq~ ayiq, äččïq ~achchiq, ästâjdil ~ astoydil

ā – orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan unli. Masalan: bāš~ bosh, āsān ~ oson, āš~osh.

e – old qator, o'rta-keng, lablanmagan unli. Masalan: el ~ el, ertäj ~ ertak, evärä ~ evara, kejin ~ keyin.

i – indifferent, yuqori tor, lablanmagan unli. Singarmonizmli shevalarda i: unlisining nisbatan qisqa talaffuz qilinadi. Shahar shevalarida barcha bo'g'inlarida kela oladi. Masalan: ikki ~ ikki, keldi ~ keldi, jurdi ~ yurdi, bārip ~ borib.

u – orqa qator, yuqori-tor, lablangan unli. Masalan: ukä ~ uka, ustä ~ usta, uçip ~ uchib, kun ~ kun.

o – old qator, o'rta-keng, lablangan unli. Masalan: boldi, toqqiz, otirdi, ojnādi.

Singarmonizm hodisasining deyarli uchramasligi olmoshlarning talaffuzida ham o'z aksini topgan.

Adabiy tilda olmosh so'z turkumining 7 ta ma'noviy guruhi mavjud. Nurafshon shahar shevasi vakillari nutqida faol qo'llanadigan olmoshlar ham adabiy tildagi kabi 7 ma'noviy guruhni tashkil etadi.

Kishilik olmoshlari adabiy tildan fonetik jihatdan farqlanadi. Quyidagi jadvalda farqli va o'xshash tomonlarini keltirdik.

Shaxs	Adabiy til birlik	Sheva birlik	Adabiy til ko'plik	Sheva ko'plik
I shaxs	men	män	biz	bizä / bizär
II shaxs	sen	sän,	siz	silä
III shaxs	u	u	ular	ulä

Ko'rsatish olmoshlari ham hududda bir qator farqlar bilan qo'llaniladi. Ayrim olmoshlar adabiy tildagi muqobili bilan bir xil talaffuz qilinsa, ba'zilar kuchli fonetik o'zgarishga uchragan.

Adabiy til	Sheva
Mana shu	mäši
Ana shu	äši
Mana bu /manavi	mänbi/mämbi
Ana bu /anavi	Änu:

So'roq olmoshlarining aksariyat qismi adabiy tildagi varianti bilan bir xil talaffuz qilinadi. Faqat ba'zi so'roq olmoshlarida fonetik o'zgarishlarni uchratish mumkin. Quyidagi jadvalda o'zgarishga uchragan olmoshlarni keltirdik.

Adabiy til	Sheva
Nega	ne
Qayerda	qättä

Qanday	<i>qāndā</i>
Nechta	<i>neštā</i>
Nechanchi	<i>nečīnči</i>

Bo'lishsizlik olmoshi ham fonetik o'zgarishga uchragan. Jadval orqali qaysi so'zlarda o'zgarish mavjudligini ko'rsatdik.

Adabiy til	Sheva
Hech kim	<i>hič</i>
Hech nima	<i>hišnimā</i>
Hech qayer	<i>hičqāt</i>

O'rta Chirchiq tumanining markazi hisoblangan Nurafshon shahar shevasini tadqiq qilish jarayonida shevaning adabiy tildan ayrim farqlari borligi aniqlandi. Shevaning unlilar tizimi va olmosh so'z turkumida kuzatilgan fonetik xususiyatlariga urg'u berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. Areal lingvistika (darslik). – Toshkent: Bookmany print, 2023.
2. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
3. Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013.
4. Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш.Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
5. Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984.
6. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1991.
7. Ғуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент, 1959.
8. Gazı Alım Junus. Ozbek lahçalarını tasnıfda bır taçrıba. – Taşkent, 1935.
9. Шаабдурахманов Ш. Карлукское наречие узбекского языка. Ташкент: Фан, 1983.
10. Шаниязов К. Узбеки-карлуки. – Ташкент: Фан, 1964.
11. Шерматов А. Қуйи Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент, 1972
12. Шерматов А. Лингвистик география нима?. – Тошкент: Фан, 1981.б.
13. Шихиев А. Туркменские говоры Бухарской области. – Нукус: Билим, 1996.
14. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Фан, 1962.
15. Шониёзов К. Қарлуқлар давлати ва қарлуқлар. – Тошкент: Шарқ, 1999.